

## **OILAVIY INQIROZLARNI OLDINI OLISHDA TARBIYANING AHAMIYATI**

**Mamajonova Xurshida Qosimjon qizi  
Xalqaro Nordik universiteti  
“Iqtisodiyot va Pedagogika” fakulteti dekan muovini  
x.mamajanova@nordicuniversity.org  
+99899-898-04-47**

### **Annotatsiya**

Maqolada oilaviy inqirozlarni oldini olishda tarbiyaning ahamiyati, oiladagi tarbiyaning shaxsda muayyan jismoni, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishdagi muammolari va ularni bartaraf etishning psixologik xususiyatlari haqida nazariy yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, ijtimoiy tarbiya, axloq, ta'lif tarbiya, estetika, muhit, psixologik xususiyat, inson, shaxs, urf-odat.

### **Kirish**

Bugungi kunda oiladagi ajralishlar, to'liq bo'limgan oilalar sonining ortishi, tarbiyaviy munosabatlarning kamayishi kabi xavfli an'analar o'zgarishi jarayonini keltirib chiqarmoqda. Oila va nikohdan qoniqishning yomonlashuv, erkaklar va ayollarning adaptatsiya imkoniyatlarining pasayishi kuzatilmoqda. Ilgari oilada nikoh ajratilmasdan mustahkam hayotiy ittifoq sifatida qabul qilingan bo'lsa, hozirgi kunda ajralishlar oilaviy muammolarni hal qilishning odatiy shakliga aylanmoqda. Bu jarayonning oqibatida, ajralishlar ko'plab emotsiyal, psixologik va axloqiy muammolarga olib keladi, ayniqsa yoshlar va qizlar uchun, ularning ruhiy salomatligiga ta'sir qiladi.

### **Adabiyotlar Tahlili va Metodologiya**

Oilaviy turmush jamiyatning asosiy va muhim tuzilmasi bo'lib, unga bo'lgan munosabatlar, qonun-qoidalar, ijtimoiy normlar oilaning mustahkamligi va uning a'zolarining ruhiy, axloqiy shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Yoshlarni oilaviy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiyalash oilaning mustahkam bo'lishiga va oiladagi a'zolarning bir-biriga bo'lgan hurmatini oshirishga yordam beradi. Oila tarbiyasi bolalar uchun to'g'ri dunyoqarashni shakllantiradi, ularda yuksak ma'naviyat va axloqiy qiymatlarni rivojlantiradi.

Zaruriy sharoitlarda oilaviy tarbiya nafaqat oila a'zolarining shaxsiy salohiyatini rivojlantirishga, balki ularning bir-biriga bo'lgan munosabatlarini yanada mustahkamlashga ham yordam beradi. Bu tarbiya jarayonida har bir a'zo o'zining ijtimoiy va axloqiy sifatlarini rivojlantiradi, oilaviy rollarni o'zaro teng ravishda taqsimlashga o'rzanadi.

### **Muhokama va Natijalar**

Oilaviy inqirozlar faqatgina janjallar yoki to'qnashuvlar bilan bog'liq emas. Inqiroz oilaning yangi sharoitlarga moslashishi, o'zaro munosabatlarning yangi shakllarini qabul qilishni talab qiladigan vaziyatdir. Oila a'zolari o'rtasidagi psixologik masofa, o'zaro tushunish va qo'llab-quvvatlash tizimi o'zgarishi mumkin. Bunday vaziyatlar oiladagi qadriyatlar, urf-odatlar, marosimlar va qoidalarni buzilishiga olib keladi.

Oilaviy inqirozlarni samarali boshqarish oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan munosabatlarini mustahkamlashga, yangi qadriyatlar va urf-odatlar yaratishga yordam beradi. Inqirozlarni yengish uchun, oilaviy a'zolar o'rtasida ochiq va samimiy muloqot, bir-birini tushunish, qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish muhimdir. Bu jarayon oilani mustahkamlashga, uning kelajagiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi.

## Xulosa

Oila tarbiyasining muhimligini anglash, oila a'zolarining o'zaro munosabatlarini mustahkamlash, inqirozli vaziyatlarni hal qilishda tarbiyaning roli nihoyatda katta. Tarbiya orqali, oila a'zolari o'zaro mehr-muhabbat, hurmat va tushunishga asoslangan munosabatlarni rivojlantiradi. Oilaviy inqirozlarni oldini olishda, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy va ruhiy sharoitlarini yaxshilash, yoshlarni to'g'ri tarbiyalash va ularda ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish zarur. Oila, o'z navbatida, insonning shaxs bo'lib shakllanishida eng muhim poydevordir va uning mustahkamligi jamiyat barqarorligini ta'minlaydi.

Insonning hayotdagi yuksak qadriyatlarni anglash, o'zini va jamiyatni tushunish jarayonlari oilada boshlanadi, bu esa kelajak avlodning ruhiy va jismoniy salomatligini ta'minlashga yordam beradi. Oila, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantiradigan ma'naviyat maskanidir.